

POROX VA MUHANDISLIK MINALAR TARIXI

Artikbayev Dilshod Tashpulatovich,

Dotsent, O'R QK Akademiyasi Jangovar ta'minot kafedrasi muhandislik ta'minoti sikli dotsenti, QK xizmatchisi, zahiradagi podpolkovnik

Ushbu maqolada portlatish vositasi bo'lmish porohni va uning asosida tayyorlangan birinchi muhandislik minalarini poydo bo'lish, ularni jangovar harakatlarda qo'llanish tarifi yoritilgan. Shu bilan birga birinchi minalarini ishslash prinsplari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Porox, mina, fugas, torpedo, "Grek olovi", "Yutuvchi olov", "Yer momoqaldirog'i", "Toshli fugas", selitra, ko'mir kukuni, oltingugurt.

To'siqlar urushning qadimi vositasi hisoblanadi. Qadim zamonlardan dushman harakatlanishini qiyinlashtirish va xududlarni himoya qilish uchun turli to'siqlar: devorlar, tosh va tuproq uyumlari, chuqurlar, xandaqlar va boshqa turli-tuman to'siqlar qo'llanilib kelgan.

Poroxni poydo bo'lishi urushni olib borishga katta ta'sir ko'rsatdi, shu bilan birga maxsus to'siqlarni poyda bo'lishiga olib keldi. Bular birinchi bo'lib piyodalarga qarshi, ob'ekt va transportga qarshi minalar, keyinchalik tanklarni poyda bo'lishi bilan tanklarga qarshi minalar edi.


Bizga ma'lumki barcha ilmiy va texnikaviy boyliklar moddiy madaniyatining asosiy qismi bo'lib, yangi davrni oldingi davrdan olgan merosi hisoblanadi. Ushbu merosni kisqacha tahlili va uni baholash bizga nafaqat ma'lum bir texnik boyliklarni hisobga olishga va shu bilan birga biror yangi yo'naliш (ob'ekt) ni poydo bo'lishi va rivojlanishini boshqa bizga tarixdan ma'lum bo'lgan yo'naliш (ob'ekt) bilan solishtirishga imkon beradi.

Tarixiy manbalarga ko'ra poroxdan oldin "Grek olovi" nomi bilan mashg'ur bo'lgan portlovchi (yonuvchi) modda ixtiro qilinganini qayd qilib o'tishimiz kerak. Ushbu moddaning tarkibi xozirgi vaqtgacha ma'lum emas va birinchi marta 673 yili Konstantinopol shaxrini ximoya qilishda arab kemalariga qarshi ishlatilgan. "Grek olovi" ni naychalarga, sharlarga solib arab kemalari va jangovar tartibidagi askarlariga qarab otildi. Ushbu qorishma tarkibi qatron (smola), oltin-gugurt, kanifol, selitra va turli qo'shimchalardan iborat bo'lib, yongan olovni suv bilan uchirib bo'lmashligi tariflangan.

682 yili xitoy kimyogari Sun Simyao juda yaxshi yonuvchi selitra, oltin-gugurt va yog'och qirimidan tashkil topgan qorishma moddani tavsiflab o'tgan [1]. Usha davrdagi poroxni tarkibiy moddalar ulushi aniq ma'lum emas. bizning fikrimizcha tutunli (qora) poroxni tarkibi mexanik aralashma bo'lib, bunda selitra 75%, ko'mir 15% va oltingugurt 10% ni tashkil qiladi. Pekin missioneri Amio tomonidan 1778 yilda qadimgi xitoy xronikasini o'rganishda eramizdan avalgi 618 yilda ("Grek olovi"ni poydo bo'lishigacha 12 asr oldin) xitoyliklarga poroxni xususiyatlari ma'lumligini xujatlarga asosan aniqladi. Usha davrda xitoyliklar poroxlarni mushakbozlikda keyinchalik harbiy ishlarda qo'llashgan. Uning ishlarida Xitoyliklar tomonidan qo'llangan portlovchi vositalarga tarif berilgan va chizmalari qoldirilgan. Xitoyliklar tomonidan "Yer momoqaldirog'i" nomi bilan ataluvchi vosita birinchi piyodalarga qarshi mina deb ham hisoblashimiz mumkin (**1a-rasm**). Ichi g'avvak bo'lgan shar shaklidagi idishga porox bilan o'q

parchalari aralashmasi to‘ldirilgan va yerga 50-60 sm chuqurlikda dushman harakatlanishi mumkin bo‘lgan joylarga ko‘milgan. Sharlar bir biridan uncha uzoq bo‘limgan masofaada bambuk qamishi ichiga joylashtirilgan oltin-gugurt bilan shimdirligani orqanlar bilan birlashtirilgan. Bu bilan birin ketinlik bilan portlash ta‘minlangan.

Keyingi, “Yutuvchi olov” nomi bilan ataluvchi, dushman piyodalarini va qayiqlari ustiga uloqtirish uchun mo‘ljallangan vosita hisoblanadi (**1b-rasm**). Ushbu vosita qatron (smola) va mumyo bilan qoplangan qog‘ozli shar ko‘rinishida bo‘lib, uning ichiga porox va o‘qlar aralashmasi solingan va uni yondirish uchun uzun plik ipi qo‘llangan.



1-rasm. Amio tomonidan xitoy xronikasidan olib chizilgan rasm.

- a) “Yer momoqaldirog‘i” birinchi piyodalarga qarshi mina;
- b) “Yutuvchi olov” dushman piyodalarini va qayiqlari ustiga uloqtirish uchun mo‘ljallangan portlovchi vosita.


Yevropa va osiyo tarixiy manbalarga ko‘ra soxibqiron Amir Temur qo‘shindan mustahkam qal‘a va qo‘rg‘onlarni qamal qilishda, dushman kuchlariga qirg‘in keltirishda samarali qurol hisoblangan, ichiga yonuvchi modda - naft solingan ko‘zachalar, irg‘ituvchi o‘t sochish quroli - ra’dning uzluksiz ishlab turishini ta‘minlovchi maxsus to‘pchilar - ra’dandozlar mavjud bo‘lgan [2, 3, 4].

Shu bilan birga Amir Temur qo‘sini safida, hozirgi muhandislik qo‘sini vazifalariga o‘xshash vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar va mutaxassislar bo‘lgan. Bu bo‘linmalarda katapultalar, suyuq yonuvchi moddalarni uloqtiruvchi qurilmalar, daryolar ustida ponton-qo‘priklar tashkil qiluvchi, qal‘a devorlari ostiga lahim (yer osti yo‘li) kavlovchi va porox yordamida devorlarni portlatuvchi mutaxassislar bo‘lgan [5, 6].

Yana bir piyodalarga qarshi mina ko‘rinishini beruvchi vosita “Asalari uyasi” deb nomlangan. Temir shar ichiga temir parchalari bilan aralashgan porox to‘ldirilgan. U yerga ko‘milgan va bambuk qamishi ichiga joylashtirilgan oltingugurt bilan shimdirligani orqali ishga tushirilgan.

Turli ko‘rinishdagi nayzalarni otish uchun poroxdan foydalanilgan, bu usulni xitoyliklar tarixiy ma’nbalarda va keyinchalik arablarning qadimgi qo‘l yozmalarida ko‘rshimiz mumkin.

XIV asrda Yevropada o‘t ochish qurolini poydo bo‘lishi bilan “Toshli fugas” lar qo‘llana boshlandi. Yevropaning XIV-XV asr xujjalarda ikki turdagи “toshli fugas” lar izohlangan (**2-rasm**).



2-rasm. “Toshli fugas” turlari:
1 – qiya turi; 2 – tik turi.

Portlash uchun alanga charm naychaga solingen porox yonishi orqali asosiy zaryad joyiga yetkazilgan. Qiya turdagи fugaslarni xozirgi vaqtida qo‘llanib kelinayotgan piyodalarga qarshi parchalanuvchi yo‘naltirilgan minalar turiga qiyoslasak bo‘ladi. Tik turdagи fugas hozirgi vaqtdagi aylana bo‘ylab ta’lofat yetkazuvchi piyodalarga qarshi mina vazifasini bajarib kelgan. Lekin bu fugaslarni asosiy kamchiligi bu poroxni nam olish qobiliyati yuqoriligi uchun faqat qisqa muddatga jangovar xolatda bo‘lishi hisoblanadi.

Birinchi suv osti minasi rus minerlari tomonidan 1769 yilda Dnestr daryosida Xotin shahri atrofida turk askarlari tomonidan qo‘riqlanayotgan ko‘priksi portlatishda qo‘llanilgan. Ushbu mina oqim bo‘ylab harakatlanib ko‘priksi ustiniga tegib portlashi oqibatida ko‘prik vayron qilingan.

1776 yilda amerikalik kapitan D. Bushnel tomonidan AQSh va Angliya o‘rtasidagi urishda bir necha turdagи suv osti minalari ishlab chiqilgan.


1806 yilda Fulton suv osti to‘sig‘ini ixtiro qilda va uni torpedo (baliq - galvanik skat “torpedo galvanie” nomidan olingan) deb nomlaydi. Torpedo mis slindir ko‘rinishida bo‘lib uning ichiga 100 funt porox joylashtirilgan va ishga suv kemasini miltiq krogiga tegishi yoki 5 minutli sekinlashtirgich soat mexanizmi orqali tushurilgan.

1862-64 yillarda AQSh dagi shimoliy va janubiy shtatlar o‘rtasidagi grajdalar urishida piyodalarga qarshi minalar katta mashtabda qo‘llanila boshladi. Mina sifatida asosan portlamay qolgan pushka bomba va granatalardan qo‘lbola usulda tayorlangan vositalar bo‘ldi.

1877-1878 yillardagi Rus-turk urushida birinchi marta avtomatik piyodalarga qarshi mina (fugas) qo‘llandi.

Ushbu mina yerga qo‘milgan va porox yoki dinamit bilan to‘ldirilgan yog‘och qutidan yoki bochkadan va avtomatik ravishda ishga tushurish uchun mo‘ljallangan moslamadan tashkil topgan edi (3-rasm). Zaryad ichiga “tortiluvchi naycha” joylashtirilgan edi. Dastag a kuch bilan


bosilganda *b* maxkamlangan “tortiluvchi naycha” ichida joylashtirilgan chaqmoqtosh poroxni alanganishiga olib kelgan.



3-rasm. Avtomatik fugas (mina) yoki “torpedo”

1905 yildagi Rus-yapon urishida rus qo'shini Port Artur shahrini ximoyasida bir nechta piyodalarga qarshi mina (fugas) lardan foydalandi.


Sushinskiy “Dala fugasi” nomi bilan ma'lum bo'lgan mina cho'yan qobig'dan iborat bo'lgan (4-rasm). Konstruksiyada fugasni xavfli va xavfsiz xolatga o'tkazish uchun mo'ljallangan saqlagich qo'llangan. Portlatgich fugasni ikki usulda portlatishiga imkon bergen: tortqich simini tortilishi oqibatida va minani bosish oqibatida. Ushbu mina bizning fikrimizcha xozirgi zamon minalari bilan raqobatlasha oladi.



4-rasm. Sushinskiy “Dala fugasi”

Avtomatik elektrofugasning elektr tutashtirgichi ushbu konstruksiyaga ega edi (5-rasm). yog'och stakan tubida sim ulagan tarelka joylashtirilgan; stakanning ichki devoriga metall gardishli doira ikkinchi sim bilan maxkamlangan; tarelkada erkin temir shar joylashtirilgan.

Tutashtirgichni egiltirilganda temir shar tarelkadan chiqib stakanning ichki devoriga maxkamlangan metall gardishiga tegadi va shu bilan elektr tutashish ro'y beradi.



5-rasm. Elektr tutashtirgichli avtomatik elektrofugas

Birinchi va ikkinchi jahon urishlarida minalarni sanoat sharoitida ishlab chiqishga katta axamiyat berildi. Urush olib borayotgan davlatlar o'zining minalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi, lekin bu minalarning tuzulishi, ishlash prinsipi bugungi kungacha yuqorida ko'rsatilgan O'rta asirlarda ixtiro qiligan usullar bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda piyodalarga qarshi minalar butun bir davlatlarning xayotiga katta tasir ko'rsatmoqda. Minalarni qo'llash faqat urush davri bilan o'lchanmay harbiy to'qnashuvlardan keyin ham uzoq davom etomqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Матвейчук, В.В. Взрывное дело (Внимание, взрыв): учебно-практическое пособие. / В.В. Матвейчук. -М.: Академический Проект, 2005. -512 с.
2. Иволгин, А.И. Минно-подрывные средства, их развитие и применение: исторический очерк / А.И. Иволгин - М.: Военное издательство, 1949. – 188 с.

3. Artikbaev D.T. Amir Temurning muhandislik san'ati. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi "O'zbekiston Armiyasi" ijtimoiy-siyosiy, axborot-tahliliy, ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik jurnalı, 2018, Iyun, № 2 (14) soni.
4. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (kadimgi davrdan hozirgacha)/ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; mas'ul muharrir: D.X. Ziyaeva/ – Toshkent.: Sharq, 2012. – 96 b.
5. Marsel Brion. Menkim, sohibqiron – jahongir Temur. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2012. – 572 b.
6. Ф.Х. Усманов, М.М. Курганбеков, Ч.Д. Угай. История войн и военного искусства. Книга 1. Древний мир, средние века и новое время. – Тошкент.: "Talqin", 2006. – 486 б.